

MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI DUDUQLANUVCHI BOLALARDA MUSTAQIL NUTQNI RIVOJLANTIRISH

Yalg'asheva Farangiz Tolib qizi

Samarqand viloyati ishtixon tuman 5 DMTT, logoped Defektolog

Annotatsiya

maqolada dudqlanuvchi bolalar nutqini o'rganish. Duduqlanuvchi bolalarda mustaqil nutqni rivojlantirish usullari, logoped, tarbiyachi va ota-onalar bilan suhbat o'tkazish, bolalarda mustaqil nutqni tekshirish, bolalar mustaqil nutqini rivojlantirishni takomillashtirish haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: psixik rivojlanish, o'ziga xos jins va yosh xususiyatlari, alaliya, afaziya, rinolaliya, nevrotik duduqlanish, nevrozsimon duduqlanish, kognitiv, kognitiv va affektiv jabhalar, genetik, ijtimoiy va shaxsiy omillar, diagnostikasi va korreksiyasi jarayonlari, fonetik, leksik va grammatik vositalar.

Bugungi kunda ta'lism-tarbiya ishlarini takomillashtirish, uni jahon andozalari darajasiga ko'tarish, fan sohasidagi yangiliklarni amaliy hayotga tatbiq etish muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Yosh avlodga ta'lism-tarbiya berish, ularda fan asoslariga nisbatan bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi.

Ayniqsa maktabgacha ta'lism tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limgan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lism xizmatharining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018 yil 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lism tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son qaroriga asosan maktabgacha yoshdagি bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'lism bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish, maktabgacha ta'lism muassasalarida bolalarning sog'lom va balanslashtirilgan ovqatlanishini, sifatli tibbiy parvarishini ta'minlash[1], bugungi kunda ta'lism tizimining eng yuqori bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lism tizimida yosh avlodni tarbiyalash masalasi ko'ndalang turadi. Ularning tarbiyasidagi

aynan axloqiy xattiharakatlarini psixologik jihatdan shakllantirish bugunning dolzarb masalasiga aylanib bormoqda.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi davri shu qadar mazmundor va faol davrdirkni, bu davr bolaning kelgusi o'sishida albatta o'z aksini qoldiradi. Shuning uchun maktabgacha yoshidagi davr ta'sir o'tkazish kuchi jihatidan g'oyat mas'uliyatlidir.

Maktabgacha tarbiya yoshiga yetgach, uning psixik taraqqiyotida jiddiy o'zgarishlar yuzaga keladi. Chunki, xuddi ana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati anchagina kengayib boradi. Maktabgacha yoshidagi bola mustaqil faoliyatda bo'la olishi uchun zarur bo'lgan ikkita qudratli kuchga ega. Birinchidan ma'lum darajada o'ziga bo'ysundirilgan harakat apparatiga, ikkinchidan esa, atrofidagi katta odamlar va o'z tengdoshlari bilan bir qadar erkin munosabatda bo'la oladigan nutqqa ega.

Mana shuning uchun bu yoshdagi bolalarning xulq-atvorlari, axloqiy sifatlari, xattiharakatlari, qiziqish va ehtiyojlari ilk yoshdagi bolalarnikidan keskin farq qiladi.

Bu esa, o'z navbatida, ilk yoshdagi bolalar bilan maktabgacha yoshdagi bolalar ta'limtarbiyasiga ham turlicha munosabatda bo'lishni taqozo qiladi.

Maktabgacha yoshdagi davrda muhit bilan bo'lgan munosabatlarida anchagina o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Bir tomondan, bola kattalarning doimiy yordamlaridan ancha ozod bo'lib, ulardan bir qadar uzoqlashadi, ikkinchi tomondan, kattalar bilan bo'lgan munosabatlari murakkab, ko'p tomonlama xarakter kasb eta boshlaydi.

Shuning uchun duduqlanuvchi bolalar nutqini shakllantirish asosan balalar bog'chasida tarbiyachilar, logopedlar va deffektologlar tomonidan turli mashg'ulotlar orqali amalga oshiriladi. Mashg'ulotlarda bolalar yangi bilim va ko'nikmalarni oladilar, shu bilan birga umumiyligi va nutqiy hatti-harakat malakalarini o'zlashtiradilar va duduqlanishdan holi mustaqil nutqdan foydalanish malakalarini egallaydilar.

Duduqlanuvchi bolalarda og'zaki ko'rsatmalar va namoyish yoki namunanining namoyishisiz birgina og'zaki ko'rsatmalarga mos ravishda o'quv faoliyatini bajarish qobiliyati shakllanadi, idrok, xotira, tafakkur, bilishga bo'lgan qiziqishlari rivojlanadi va boshqaruv jarayonlari shakllanadi.

Bolalar aniq va umumiyligi savollarga javob berishga o'rganadilar; logoped, tarbiyachining talabiga ko'ra qisqa va keng javob qaytarishni mashq qiladilar; normal tempda, atrofdagilar uchun tushunarli, yetarlicha baland, aniq, ma'noga mos ravishda javob beradilar. Mashg'ulotlarda ot, sifat va tilning boshqa bo'laklarining grammatik shakllarini to'g'ri qo'llash malakalari mustahkamlanadi.

**Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities
Hosted online from Plano, Texas, USA.**

Date: 1st December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

Diqqatning jamlanganligi, fahmlilik, eslash, dialog vaqtida faol ishtirok etish, lozim bo'lganda esa impulsiv bayondan o'zini tiyish kabi sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan ishlar mashg'ulotlarning ajralmas qismi hisoblanadi. O'rtoqlaridan ilgarilab ketmay va ulardan ortda qolmay ishni bir vaqtida boshlash va yakunlash ko'nikmasi shakllanadi, faoliyatning normal tempi, harakatchanlik, kelishib, ketma-ketlikda ishslash odati, boshlangan ishni oxiriga yetkazish, faoliyatning ikki turi o'rtasida diqqatni taqsimlay olish, materialni (qog'ozni) ratsional sarflash, qo'llanmalar, qurollardan to'g'ri foydalanish shakllantiriladi.

Ijobiy shaxsiy sifatlarni va umumiyligi va nutqiy hatti-harakat malakalarini shakllantirish, shuningdek mustaqil nutqdan foydalanish malakalarini mustahkamlashga alohida e'tibor beriladi. Shuningdek nafaqat jamoada, balki yakka tarzda o'ynash ko'nikmasini rivojlantirishga, o'yin qoidalariga mos ravishda o'z istaklarini bo'ysindirish yoki chegaralashga, iroda sifatlarini tarbiyalashga: o'z-o'zini nazorat etish, o'z hatti-harakatlariga javobgarlik, diqqatni jamlash, o'yinda faol bo'lish va bir vaqtning o'zida lozim bo'lsa, o'z hissiyotlari va hoxishlarini tiya bilishga katta e'tibor beriladi[2].

O'yin jarayonida nutqni korreksiyalash.

Duduqlanuvchi bolalarda ommaviy bolalar bog'chasi dagi bolalar singari, mehnatga bo'lgan qiziqish va muxabbatni rivojlantirish, ularni mehnat topshiriqlarini harakatchan va puxta bajarishga o'rgatish, mehnat natijalariga erishishga bo'lgan intilishni, barcha bolalar bilan bir qatorda birlilikdagi mehnat faoliyatida ishtirok etish tayyorgarligini tarbiyalash lozim. Tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolalarda onson mehnat turlari malakalarini, kattalar va o'rtoqlarining mehnatiga hurmat bilan munosabatda bo'lishni shakllantiradi va bir vaqtning o'zida mehnat qurollari haqidagi bilimlarni mustahkamlaydi.

Maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchilarda mehnat jarayonida kattalar nutqiga bo'lgan e'tiborni tarbiyalash, ularda sabr, diqqatni jamlash, maqsadga yo'nalganlikni tarbiyalash juda muhim. Ular topshiriqni oxirigacha tinglay olishlari, so'ng esa uni bajarishga kirishishlari kerak. Duduqlanuvchi bolalar bilan olib boriladigan ishlarning umumiyligi vazifalari bilan bir qatorda rejim momentlarini ularning umumiyligi va nutqiy hatti-harakatlari singari nutqiy faoliyatni korreksiyalashda ham qo'llash lozim.

Kun tartibida duduqlanishsiz to'g'ri nutqiy muloqotni tashkil etish uchun qator qulay fursatlar bo'lib, ular xususida bolalar bilan suhabatni tashkil etish mumkin. Bunda bolalarni muloqot vaqtida tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Bolalar



Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities Hosted online from Plano, Texas, USA.

Date: 1st December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

birbirlarini yaxshi ko'rishlari uchun ularni to'g'ri o'tkazish maqsadga muvofik (doira, yarim doira). Bolalar suhbat davomida ishtirok etishlari uchun barcha momentlarni aniq tashkil etish lozim: yuvinish, kiyinish, yechinish, navbatchilik, ekskursiya, kuzatish va b. Bolalarni barcha harakatlarni ortiqcha shovqinsiz bajarish, kattalar nutqini va o'rtoqlarining javoblarini tinglash, savol berilganda javob qaytarish va o'rtoqlarini gapini bo'lmaslikka o'rgatish lozim.

Kattalar nutqiga alohida e'tibor beriladi. Ular nutqi sokin bo'lishi, savollar bolaning savoli va javobi o'rtasida pauzalarga amal qilgan holda aniq shakllantirilgan bo'lishi kerak. Javobni o'ylab olish uchun vaqt berish, normal tempda so'zlash, shaxsiy nutqni sekinlashtirmaslik va bolalardan nutqlarini sekinlashtirishni talab etmaslik kerak.

Duduqlanadigan bolalar bilan olib boriladigan logopedik mashg'ulotlarga quyiladigan asosiy talablar:

- 1) Logopedik mashg'ulotlar duduqlanuvchi bolaning nutqi va shaxsiga pedagogik-tuzatish orqali ta'sir etishning asosiy vazifalarini o'zida aks ettiradi.
- 2) Logopedik mashg'ulotlar muayyan tartibda, uzlusiz, bosqichli, asosiy didaktik prinsiplarni hisobga olgan holda har bir bolaning shaxsiy xususiyatlariga bog'liq ravishda; bolalarning ongliligi va faolligiga tayangan holda olib boriladi; mashg'ulotlarda qo'llanmalar, ta'limning ko'rgazmali, texnik vositalaridan foydalaniladi; mashg'ulotlar tarbiyalanayotgan to'g'ri nutq va xatti-harakat kunikmalarining mustatahkam bo'lishiga yordam beradi.
- 3) Logopedik mashg'ulotlar maktabgacha tarbiya yoshdag'i va maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash va o'qitish dasturlari talablariga mos bo'ladi.
- 4) Mashg'ulotlarda duduqlanadigan bolalarning turli sharoitlarda to'g'ri nutqi va xatti-harakatini mashq qildirish zarurligi hisobga olinadi, masalan: logopediya kabinetida va undan tashqarida, turli hayotiy vaziyatlarda, tanish va notanish shaxslarning ishtirokida va hokazo. Shu maqsadda logopedik mashg'ulotlarning turli ko'rinishlari: nutqni rivojlantirishga doir ko'pgina ish shakllari, didaktik, harakatli, syujetli-rolli va ijodiy o'yinlar, sayohatlar, ertaliklar, konsertlarga tayyorlanish hamda ularda ishtirok etish, mikrofon oldida so'zga chiqish va boshqalarda qo'llaniladi.
- 5) Mashg'ulotlar shunday tashkil qilinadiki, ularda bola duduqlanishsiz va u bilan birga kelib chiqadigan buzilishlarsiz gapirishi lozim.
- 6) Mashg'ulotlar boladagi yaxshi kayfiyatni, bardamlik, o'z kuchiga ishonchni mustahkamlaydi.

7) Duduqlanuvchilar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarda to'g'ri nutq namunalari logopedning, samarali shug'ullanadigan bolalarning nutqi, badiiy so'z ustalarining chiqishlari aks ettirilgan magnitofon yozuvlari va plastinkalar, logopediya kursini avval muvaffaqiyatli tamomlaganlarning tantanali chiqishlari va hokazolar muntazam ishtirok etadi.

8) Mashg'ulotlar atrofdagilarning duduqlanadigan bolaga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lislhlari va uning to'g'ri tarbiyalanishi asosida olib boriladi. Duduqlanadigan bolaning mustaqil ishlashini tashkil etish nutq tarbiyachisi vazifalarini oilaviy-maishiy, o'quv-tarbiyaviy sharoitlarda va uning tengdoshlari jamoasida bajarilishiga yo'naltiriladi [3].

Katta guruhda duduqlanuvchi bolalar bilan logopedik ish sistemasi. Ish mazmuni. Nutqni rivojlantirish va atrofdagi olam bilan tanishtirishga doir mashg'ulotlar Tasviriy faoliyat va qurishga doir mashgulotlar Sentabr, oktabr, noyabr.

"Kuz", "sabzavotlar", "mevalar", "daraxtlar" leksik mavzularida bolalar bilimlarini kengaytirish va aniqlashtirish. Bolalarni predmetlarni, rasmlarni (mevalar, sabzavotlar, o'yinchoqlar tasviri bilan) toifalarga guruhash va ularni umumlashtiruvchi so'zlar bilan nomlashga o'rgatish. Sabzavotlar va mevalar va ularning hosili, terib olinadigan yil fasllari haqidagi tasavvurlarni shakllantirish. (Kuzda sabzavot va mevalar pishadi, ularni dehqonlar yetishtiradi va terib oladi. Qushlar uzoq o'lkalarga uchib ketadilar, kunlar qisqa, tunlar uzoq bo'ladi. Ob-havo o'zgaradi: kunlar soviy boshlaydi, quyosh kamroq sitadi, yomg'irlar yog'adi. Barglar sarg'ayadi va to'kiladi.).

Yil fasllarining o'zgarishini to'g'ri ketma-ketlikda nomlashga o'rgatish: kuzdan so'ng qish keladi va b.

Nutqga bo'lgan diqqatini tarbiyalash.

Bolalarni nutq namunalarini diqqat bilan tinglashga va ko'rsatilgan ketmasetlikda og'zaki topshiriqlarni aniq bajarishga o'rgatish: "Avval bodringni ber, o'ngra pomidor, sabzi, piyozni", "...qo'y", "...olib kelib ber", "...olib borib ber", "...berkitib qo'y" va b.

Mustaqil vaziyatli nutqni mashq qildirish.

Bolalarni natural predmetlar, o'yinchoqlar va predmetli rasmlarni ko'zdan kechirish davomida savollarga aniq javob berish, javoblarda predmet, uning qismlari, shakli va rangini, predmet hajmi va uning qismlarini, u tayyorlangan material, predmet harakati va holatini nomlashga o'rgatish.

Bolalarni aniq savollarga ko'rgazmali materialga tayangan holda bir so'z bilan javob berishga o'rgatish: "Bu kim?", "Bu nima?" (qiz bola, archa, nok, bodring...), "Predmet hajmiga ko'ra qanday?" (katta, kichik...), "Predmet rangiga ko'ra qanday?" (oq, qora, jigarrang...), "Nima qilayapti?" (yotibdi, osilib turibdi, o'tiribdi, o'sayapti...), "Predmet qanday materialdan?" (taxtadan, plastmassa, temirdan, shishali...).

Bolalarni nutq modellaridan foydalanib, duduqlanishsiz so'z birikmalari bilan javob berishga o'rgatish, masalan: Koptok qizil rangda. Shar dumaloq shaklda. Kuchuk yotibdi. O'rdak suzayapti. Mushuk gilam ustida yotibdi. O'rganilayotgan mavzu bo'yicha yakunlovchi mashg'ulotlarni o'tkazishda o'z javoblarida ko'rgazmalarga tayanmagan holda umumlashtiruvchi tushunchalardan foydalanishga o'rgatish.

- Bolalarning badiiy asarlarga bo'lган qiziqishini va muhabbatini oshirish.
- Bolalarni badiiy matn mazmuniga ko'ra aniq savollarga javob berishga o'rgatish.
- She'rlarni ifodali o'qishga o'rgatish.

Qayta hikoyada asar xarakteri, qahramonlarning kechinmalariga mos ma'noli pauzalar, intonatsiyalarga amal qilish.

Tarbiyachi o'z mashg'ulotlarida faqatgina bolalarni nutqni tinglashga (tushuntirish, ko'rsatma berish) va og'zaki ko'rsatmaga mos ravishda topshiriqni aniq bajarishga o'rgatadi. Bolalar tomonidan mustaqil nutqni faol qo'llashdan mustasno holatlarda logoped roziligidagi ko'ra va chegaralangan hajmda yo'l qo'yiladi.

Nutqga bo'lган diqqatini tarbiyalash.

Bolalarning ishning namunasi namoyishi bilan birgalikdagi og'zaki topshiriqlarga diqqatini rivojlantirish.

Predmetlarning qog'ozda joylashishi (markazda, o'ngda, chapda, tepada, pastda), ranglarning, shakllarning qo'llanilishi, predmetlarning ketma-ketligiga ko'ra topshiriqlarni esda saqlab qolish va aniq bajarish ko'nikmasini hosil qilish.

Mustaqil nutqda mashq qildirish.

Mashg'ulot jarayonida (mashg'ulotga tayyorgarlik, materiallarni tarqatish, topshiriqlarni tushuntirish va bajarish, ishni xulosalash) bolalarni savollarga javob berishga o'rgatish.

Turli xarakterdagи faoliyatni bir vaqtning o'zida olib borish ko'nikmasi shakllantirish: eshitish va yasash, chizish, kesish; chizish va bir vaqtning o'zida savolga javob berish.

Mashg'ulot davomida qo'llanilayotgan materialni (qalam, qog'oz, kley, plastilin, qaychi va b.), tasvirlanayotgan predmetlarni, ularning qismlari, predmet rangi, shakli yoki uning qismlari, shuningdek yasash, applikatsiya, chizish, qurish davomida bajarilayotgan harakatlarni bir so'z bilan nomlashda egallangan nutq namunalaridan foydalanishga o'rgatish: "Sen nimani chizayapsan?" - Olmani. "Olma shakliga ko'ra qanday?" - dumaloq. "Sen nima bilan chizayapsan?" - qalam bilan va b.

Savollarga so'z birikmalari (Qog'oz ok. Plastilin yumshoq.), jumlalar (Men bodring rasmini chizayapman.) bilan javob berishga o'rgatish [4].

Tarbiyachi mashg'ulotlarida bolalar tomonidan mustaqil nutkdan foydalanish logoped roziligidagi ko'ra chegaralangan miqdorda yo'l qo'yiladi.

Hulosa qilib aytganda bolalarda bunday nuqson asosan qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining muvozanati buzilishlaridan kelib chiqadi. Logoped tavsiyalarida bolaning nutqi kechikayotganini yoki tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilayotganini, duduqlanayotganini sezganingiz zahoti mutaxassislarga murojaat qilishingiz lozim. Qancha erta murojaat qilsangiz, nutq nuqsonlari shuncha samarali bartaraf etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lex.uz/.O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. Mirziyoyev Toshkent sh., 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son.
2. L.I. Belyakova, YE.A. Dyakova —Logopediya Zaikaniye|| xrestomatiya —Eksmo-Press||, 2001
3. L.I. Belyakova, Lubenskaya A.I. Priyom uchao_yeniya straxa rechi u detey, stradayuo_ix zaikaniyem J. Defektologiya, 1985.
4. Volkova L.S., Shaxovskaya S.N. Logopediya, —Vladost||. 2004.

References

1. Lex.uz/. President of the Republic of Uzbekistan Sh. Mirziyoyev Tashkent, September 23, 2020, No. ZRU-637.
2. L.I. Belyakova, YE.A. Dyakova —Logopediya Zaikaniye|| chrestomatiya —Exmo-Press||, 2001
3. L.I. Belyakova, Lubenskaya A.I. Priyom uchao_yeniya straxa rechi u detey, stradayuo_ix zaikaniyem J. Defectologiya, 1985.
4. Volkova L.S., Shaxovskaya S.N. Speech therapy, ladVladosi. 2004.